

O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI

INTERNATIONAL ISLAMIC
ACADEMY OF UZBEKISTAN

МЕЖДУНАРОДНАЯ АКАДЕМИЯ
ИСЛАМОВЕДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА



ISLOM SHUNOSLIK VA ISLOM
SIVILIZATSİYASINI O'RGANISH
ICESCO KAFEDRASI
ICESCO CHAIR FOR ISLAMIC
STUDIES AND STUDY OF ISLAMIC
SIVILIZATION

КАФЕДРА ICESCO ПО
ИСЛАМОВЕДЕНИЮ И ИЗУЧЕНИЮ
ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA ISLOMNI
TUSHUNISH MUAMMOLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
TO'PLAMI

COLLECTION
of materials of the international scientific and practical conference on
**PROBLEMS OF UNDERSTANDING ISLAM IN THE PROCESS
OF GLOBALIZATION**

СБОРНИК
материалов международной научно-практической конференции
на тему
**ПРОБЛЕМЫ ПОНИМАНИЯ ИСЛАМА В ЭПОХУ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

مجموعة
مقالات المؤتمر العلمي والعملية الدولي حول موضوع
مقاربات فهم الإسلام في عصر العولمة: مشكلات وحلول

V

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 298
KBK: 86.38
G 54

Globallashuv jarayonida islomni tushunish muammolari [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. V 05.11.2025. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 462 b.

Mas’ul muharrir:
t.f.n., professor v.b. M.M.Kamilov

Tahrir hay’ati a’zolari:
PhD dots. M.Agzamova, t.f.n., dots. D.Rahimjonov, t.f.n., dots. M.Ismoilov,
PhD dots. H.Sagdiyev, t.f.n., dots. D.Muratov, dots.v.b. A.Qambarov, PhD dots.
O‘.Polvonov, PhD dots. N.To‘rayev, PhD dots. N.Hakimova, PhD dots.
N.To‘ychiyeva, PhD dots. v.b. J.Sodiqov, PhD dots. v.b. Sh.Umaraliyev, PhD
dots. B.Ahmedov, PhD S.Ummataliyev, PhD D.Mustafayev,
PhD Ahmad Sa’d Damanhuriy, kat. o‘qi. L.Abduqodirov, o‘qi. A.Yangiboyev.

Tuzuvchi:
PhD D.Mustafayev

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risi”dagi 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i va O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektorining 2025-yil 24-yanvardagi “2025-yil xalqaro va respublika miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlarni tashkil etish to‘g‘risi”dagi 01-18-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 5-noyabr kuni O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasidan **“Globallashuv jarayonida islomni tushunish muammolari”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mazkur to‘plam ushbu anjuman materiallarini o‘z ichiga olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan fakt, raqam, ma’lumotlar va ularning originalligi uchun mualliflarning shaxsan o‘zlari mas’uldirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 20.10.2025 sanadagi 03-07/6480-sonli xulosasiga asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-06-791-4

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2025.**

устави ҳамда 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон декларациясига мос тушади. Қисқаси, дин дунёвий давлат тизими билан нафақат мурося қилиш, балки умуммиллий тараққиёт йўлида, у билан самарали ҳамкор бўлиши мумкин.

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”

kafedraasi o‘qituvchisi

ISLOM SIVILIZATSIYASI – YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVİY-MA’RIFIY SALOHİYATI RAMZI

Din-inson ruhiyatini poklashi, turli xalqlar o‘rtasida muloqot o‘rnatishi, ularni ma’naviy va mehr-oqibat tuyg‘ularini mustaxkamlashi, milliy qadriyat va an’analarni asrashga xizmat qilishi bilan har qanday jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, insoniyat murakkab taraqqiyot jarayonini boshidan kechirayotgan hozirgi davrda ruhiy jihatdan yaqinlashtirish, zulm va zo‘ravonlikka qarshi birgalikda kurashga da’vat etish borasidagi ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari g‘oyat murakkab, ko‘p qirrali islom dunyosining ajralmas qismidir. Sir emaski, bu dunyoda yetarli darajada rasmiy va norasmiy yoki boshqacharoq aytganda, barcha dinlarga nisbatan murosasizlik, yohud islomdan tor milliy manfaatlarni himoya qilishning asosi sifatida foydalanish maqsadida mahkam tutgan holda, islomni o‘z siyosiy rejalariga bo‘ysindirmoqdalar. So‘nggi yillarga kelib, islom dinini o‘zlariga niqob qilib olgan bir guruh munofiq kimsalar va toifalar paydo bo‘ldi. Ular jamiyat o‘rtasida buzg‘unchilik, nohaq qon to‘kilish kabi salbiy holatlarni avj oldirib, musulmonlar tinchligini buzib, dunyo oxiratining barcha ezguliklariga chorlovchi islom diniga zarar yetkazib, ummat orasida nizo chiqarishga, nifoq solishga harakat qilmoqdalar. O‘zbekiston qadimdan dinlar o‘lkasi bo‘lib, islom dinidan avval: zardushtiylik, yahudiylik va boshqa o‘nga yaqin dinlar mavjud bo‘lgan.

Tarixdan ma’lumki, Amir Temur islom dinining o‘ziga xos, mutaasiblikdan holi, erkin tushungan. Uning komil e’tiqodi boshqa dinlarni rad etish hisobiga bo‘lmagan va bu jihatdan u nafaqat o‘z asri, balki, hozirgi, zamon kishisi uchun ham namunadir.

Islom sivilizatsiyasi dunyo tarixida o‘zining ilmiy yutuqlari, ijtimoiy tuzumdagi adolatparvarligi, madaniy rivojlanishdagi ulkan hissasi hamda bag‘rikenglik tamoyillari bilan ajralib turadi. VII asrda Muhammad (s.a.v.) tomonidan boshlangan islom dini qisqa fursatda keng hududlarga tarqalib, ko‘p millatli va ko‘p dinli jamiyatlar bilan aloqada bo‘lgan. Bu esa islom sivilizatsiyasining o‘zaro hurmat, murosas va bag‘rikenglik asosida shakllanishiga zamin yaratgan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ma’naviyat va ma’rifat asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekiston – bu eng avvalo, ma'naviyatli jamiyat" [1].

Bu ma'naviyatning tub ildizlari esa asosan Islom sivilizatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Islom dini faqat diniy emas, balki ilm-fan, ma'rifat, ahloq va jamiyat tuzilishiga oid keng qamrovli tamaddundir.

Islom ilk bor Arabiston yarim orolida vujudga kelgan bo'lsa-da, u forslar, hindlar, yunonlar, turklar, berberlar va boshqa xalqlarning madaniyati bilan uyg'unlashib, ulkan ilmiy-madaniy uyg'unish davrini boshlab berdi. Abbosiylar davridagi Baytul-hikma (Hikmat uyi), Andalusiyadagi Kordova va Granada shaharlari, Movarounnahrda Samarqand va Buxoro shaharlari ilm-fan, madaniyat va falsafa markazlariga aylangan.

Musulmonlar yunon, hind va rum olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ularni rivojlantirdilar. Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Biruniy kabi allomalar dunyo ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Islom dini bag'rikenglikni e'tiqod, ijtimoiy hayot va xalqaro munosabatlarda muhim qadriyat sifatida ko'rsatadi. Qur'on va Hadislarda bu borada aniq ko'rsatmalar mavjud:

Qur'oni Karimda: **"Din borasida majburlash yo'q. Albatta, to'g'ri yo'l nohaq yo'ldan ajratib qo'yildi"** (Baqara surasi, 256-oyat).

Hadisda: "Kimki bir zimmiy (Islom davlatidagi no-musulmon fuqaro)ga zulm qilsa, qiyomat kuni men uning dushmani bo'laman" (Abu Dovud rivoyati).

Islom tarixida zimmiylar – musulmonlar bilan bir jamiyatda yashagan musulmon bo'lmagan fuqarolar – o'z dinida, urf-odatida erkin bo'lgan.

Islom sivilizatsiyasining buyukligi uning boshqa e'tiqod va millat vakillariga hurmat asosida yondashganida namoyon bo'ladi.

Temuriylar davrida: Samarqand va Buxoro ilmiy va madaniy markaz sifatida rivojlanib, turli millat va e'tiqod vakillari faoliyat yuritgan.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat ko'p madaniyatli va ko'p e'tiqodli jamiyatda yashamoqda. Tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitida shakllanadi. Islomning asl mohiyatini – tinchlik, adolat va murosa g'oyalarni qayta tiklash, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi turish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Islom sivilizatsiyasi VIII–XII asrlarda o'zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga yetdi. Bu davrda Movarounnahr (hozirgi O'zbekiston hududi) butun Islom olamining ilmiy markaziga aylangan edi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar Islom dunyosiga beqiyos meros qoldirdilar. Akademik B. Karimov fikricha: "Islom sivilizatsiyasi Yevropa Uyg'unish davrining asosiy manbalaridan biri bo'lgan ilmiy bilimlarni saqlab qolgan va rivojlantirgan tamaddundir" [2].

Yangi O'zbekistonda Islom madaniy merosini o'rganish, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 16-oktabrdagi "Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misoldir [3].

Mazkur Markaz faqat diniy emas, balki tarixiy, ilmiy va madaniy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi muhim muassasaga aylangan. Islom sivilizatsiyasi – ma'naviy-

ma'rifiy yuksalish ramzi. Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasida, ta'limda, diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda Islomning sof g'oyalari, ayniqsa, ilg'or fikrlar asos sifatida qaralmoqda. Bu borada Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi mutafakkirlarning merosi keng o'rganilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: "Biz ajdodlarimiz merosini o'rganib, uni zamonaviy hayotimizga tatbiq etish orqali ma'naviy uyg'onishning ikkinchi bosqichiga erishmoqdamiz" [4].

Islom sivilizatsiyasi nafaqat dini qadriyatlarni, balki ilm-fan, san'at, ijtimoiy adolat va bag'rikenglik tamoyillarini ham o'z ichiga olgan boy merosdir. Tarixda bu sivilizatsiya turli xalqlar va din vakillarining birgalikda yashashiga, ularning ilmiy va madaniy yutuqlariga imkon bergan. Bugungi kunda bu qadriyatlarni chuqur o'rganish, ularni saqlash va targ'ib qilish orqali zamonaviy jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston – el-yurt orzusi va ezgu maqsadlar jamiyatidir". Xalq so'zi, 2023.
2. Karimov B. "Islom sivilizatsiyasi va O'zbekiston tarixida uning o'rni". – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4861-son qarori, 16.10.2020.
4. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk ajdodlarimizga munosib bo'laylik". – T.: Ma'naviyat, 2022.
5. Islom sivilizatsiyasi – Yangi O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ramzi.

Yuldasheva Matluba Munavarovna

Qo'qon davlat universiteti

Milliy g'oya va huquq kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi.

GLOBAL AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI VA MADANIY ALMASHINUVLAR NATIJASIDA JAMIYAT FIKRINING SHAKLLANISHINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Zamonaviy dunyoqarash, inson huquqlari, adolat, erkinlik va tenglik kabi printsiplar jamiyatning yangi mafkurasiga asos soladi. Hozirgi davrda globalizatsiya, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va madaniy almashinuvlar natijasida jamiyat fikrining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Yangi jamiyatda shaxsning erkin fikr bildirish huquqi, individualizm va innovatsion yondashuvlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa, an'anaviy mafkuraviy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy sharoitga moslashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Mafkuraviy islohotlar, odatda, qadimiy ijtimoiy, siyosiy va madaniy me'yorlarga qarshi chiqib, yangi qadriyatlar, printsiplar va intellektual me'yorlarni targ'ib qiladi.

А.Мингноров. Советларнинг динга нисбатан олиб борган сиёсатининг даврий матбуот саҳифаларида ёритилиши.....	103
М.Раҳимов, Ш.Султанова. Конфессия атамаси ва унинг мазмун-моҳияти ҳамда диний бағрикенглик тамойили	106
Sh.Miraxmedova. Islom sivilizatsiyasi – Yangi O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy salohiyati ramzi.....	110
М.Yuldasheva. Global axborot texnologiyalarining rivojlanishi va madaniy almashinuvlar natijasida jamiyat fikrining shakllanishini o‘ziga xos xususiyatlari	112
А.Идрисов. Исламская цивилизация: традиции толерантности и гуманизма.....	115
М.Djahongirova. Dinlararo muloqot madaniyatining XIX-XX asrlarda rivojlanishi	119
S.Sharopov. Prospects for cooperation between Uzbekistan and the United Kingdom in the field of islamic studies.....	122
О.Базарова. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Amaliyoti islom” asarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	127
М.Накимов. Hujurot surasidagi millatlararo totuvlik g‘oyalari	130
D.Yuldasheva. Islom ta’limotida insonparvarlik tamoyilining o‘rni.....	134
М.Лapasov. Islomda tinchlik va barqarorlik talqini.....	137
М.Abdumalikova. Globallashuv davrida islomni noto‘g‘ri talqin qilish muammolari – sabab va oqibatlar.....	140

IKKINCHI SHU’BA

ISLOM VA HOZIRGI ZAMON

З.Исламов. Ислomшунослик тадқиқотларининг янги даври	144
Shehu Fatmir. Religious didactics from the perspective of islam: a theological-based theoretical framework on climate justice (water ethics).....	148
Hulya Alper. Imam Mâtürîdî’de ahlakî değerlerin kaynağı ve edinimi sorunu ..	156
Yahya Pallavicini. Imam al-Maturidi universal teachings for the challenges of muslims in Europe	160
Д.Раҳимжонов. Ислom динининг Европага кириб келиши	164
Х.Сагдиев. Замонавий медиада ислom ҳақидаги тасаввурларнинг бузилиш сабаб ва заминлари	166
И.Сафаргалеев. Суфийский тарикат Шейха Ахмада Зульфикара и разрешение на наставничество (иджаза)	170
М.А.Гантимиров. Особый взгляд на историю: повествования Корана в мировом контексте.....	176
N.Hakimova. Hakim Termiziy asarlarida hukm va hikmat tushunchasining aks etishi	179
Н.Ибрагимова. Ислom дипломатиясида тинчлик ғоялари	184
Х.Аlimov. Tasavvuf va o‘zini o‘zi takomillashtirish: psixologik aspekt.....	187
Д.Муратов. «Ғариб ал-ҳадис» илмининг аҳамияти	190